# PROTSESSUAL SINTAKSEMANING FUNKSIONAL XUSUSIYATLARI

*Ilmiy rahbar*
**Asadova G. T**

**Annotatsiya:** Mazkur tezisda funksional sintaksis doirasida protsessual sintaksemalarning o'rni va asosiy funksional xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotning nazariy asosi A.M.Muxin tomonidan ishlab chiqilgan sintaksemik yondashuvga borib taqaladi. Protsessual sintaksema esa dinamik jarayonni ifodalovchi sintaktik-semantik birlik sifatida boshqa sintaksema sinflaridan farqlanadi. Tezisda protsessual sintaksemalarning gapdagi pozitsiyasi, predikativ munosabatdagi ishtiroki, agentiv va obyektiv birliklar bilan aloqasi, shuningdek, gerund, infinitiv va fe'l shakllari orqali ifodalanishi misollar asosida ko'rsatiladi.

**Kalit so'zlar:** sintaksema, protsessual sintaksema, funksional sintaksis, sintaktik-semantik belgi, dinamik jarayon.

Til birliklarini faqat grammatik belgilar asosida tavsiflash gapning mazmuniy va funksional tomonlarini to‘liq ochib berishga har doim ham imkon bermaydi. Ayniqsa, ingliz tilida bir xil grammatik shakl turli sintaktik holatlarda turlicha vazifa bajarishi yoki turli shakllar bir xil funksional mazmunni ifodalashi mumkin. Shu jihatdan funksional sintaksisda gap komponentlarining shakli bilan birga ularning sintaktik-semantik xususiyatlarini aniqlash muhim hisoblanadi. Sintaksemik yondashuvning asoschisi sifatida A.M.Muxin qaraladi. “Protsessuallik” atamasi protsess so‘zidan olingan bo‘lib, jarayon ma’nosini ifodalab, u substansial va kvalifikativ belgilarga qarama-qarshi qo‘yiladi. Protsessuallik kategorial belgilardan biri hisoblanib, sintaktik sathda aksionallik (harakat), passivlik(yo‘naltirilganlik) va stativlik (holat) kabi bir qancha nokategorial belgilarni ham o‘zida aks ettiradi.

Protsessual sintaksema mazkur tizimda alohida ahamiyatga ega, shu sababli S.M.Suxorolska va O.L.Fedorenko sintaksemalarning kategorial sintaktik-semantik belgilariga ko‘ra substantive, qualificative va processual guruhlarga ajratilishini ko‘rsatadi. Ularning izohiga ko‘ra, protsessual sintaksemalar “dynamic process”ni, ya’ni dinamik jarayonni bildiradi. Protsessual belgi muayyan predmetning o‘zini emas, balki uning harakati yoki jarayonini sintaktik-semantik jihatdan ifodalash bilan bog‘liq.

Protsessual sintaksemani aniqlashda asosiy mezon uning dinamik jarayonni ifodalashidir. Bu yerda “jarayon” tushunchasi faqat fe’lning

morfologik shakliga tenglashtirilmaydi. Protsessual sintaktik-semantik belgi turli grammatik vositalar orqali namoyon bo‘lishi mumkin. Shu sababli biror birlikni protsessual sintaksema sifatida belgilashda uning shakli bilan bir qatorda gapdagi tutgan o’rni hamda distributiv xususiyatlari, bulardan tashqari boshqa komponentlar bilan munosabati ham hisobga olinadi.

2025-yilda V.A.Doroshenkov, S.A.Amakhina va Yu.N.Sinitsyna A.M.Muxinning to‘qqiz monografiyasidagi nazariy qarashlarni umumlashtirib, ushbu ishlarda 400 dan ortiq elementar sintaktik birliklar: pozitsion, fakultativ va kombinator sintaksemalar tavsiflanganini qayd etadil. Mualliflar sintaksema mazmunini sintaktik va semantik belgilar tashkil etishini, bu belgilar esa distributiv xususiyatlar asosida aniqlanishini ta’kidlaydi. Mazkur tadqiqotda 306 ta sintaksema ichida 88 tasi protsessual sintaksemalar sifatida qayd etilgan va ularga 20 ta belgi biriktirilgan Bu ma’lumot protsessual sintaksemalarning sintaksemik tizimdagi mustaqil va salmoqli guruh ekanini ko‘rsatadi.

Protsessual sintaksemaning birinchi funksional xususiyati dinamik jarayonni ifodalashidir. Bunda sintaksema bajarilayotgan, yuz berayotgan yoki amalga oshirilayotgan harakatni sintaktik tuzilma tarkibida ifodalaydi. Masalan, “The child is running” gapida running shakli jarayonni bildiradi. Biroq sintaksemik tahlil uchun uning “fe’l” ekanini qayd etishning o‘zi yetarli emas. Uning gapdagi predikativ markaz bilan munosabati va dinamik jarayonni ifodalashi ham qayd etiladi.

1. The child is running.

Bu gapda running protsessual mazmunni yuzaga chiqaradi, the child esa jarayonning bajaruvchisini bildiruvchi birlik sifatida qatnashadi. Shunday qilib, protsessual sintaksema va agentiv sintaksema o‘rtasidagi funksional aloqa ko‘rinadi.

Ikkinchi xususiyat protsessual sintaksemaning predikativ munosabatlarni shakllantirishdagi ishtirokidir. E.A.Vanchikova sintaksemaga “a minimal unity of morphology, semantics and syntax” sifatida yondashadi va predikatsiya hamda ikkilamchi predikatsiyani sintaksema yordamida tavsiflash mumkinligini ko‘rsatadi. Protsessual birlik gapning predikativ markazi bilan bog‘lanar ekan, uning morfologik shakli, semantik mazmuni va sintaktik vazifasi birgalikda tahlil qilinadi.

2. The students began reading.

Bu gapda reading gerund shaklida kelgan. U predmetni emas, jarayonni bildiradi. Shuning uchun uni protsessual sintaktik-semantik belgi asosida tahlil qilish mumkin. Began fe’li bilan birikishi esa uning gapdagi funksional pozitsiyasini aniqlashga yordam beradi.

Uchinchi xususiyat protsessual sintaksemaning turli morfologik shakllar orqali ifodalanishidir. Protsessual ma’no faqat oddiy fe’l shakli bilan emas,

gerund, infinitiv va ayrim hollarda boshqa fe’lga yaqin konstruksiyalar orqali ham yuzaga chiqishi mumkin. Shuning uchun sintaksemik tahlilda “protsessual” kategoriyasi “fe’l” grammatik turkumidan kengroq funksional tushuncha sifatida ishlatiladi.

Sintaksemik nazariyada predikativ munosabatni tashkil qiluvchi komponentlarning sintaktik-semantik belgilarini aniqlash muhimdir. Vanchikova tadqiqotida predikativ va ikkilamchi predikativ munosabatlar sintaksemalar yordamida tahlil qilinadi. Muallif sintaksemaning sintaktik xususiyatlari uning “syntactic function”i va gapdagi pozitsiyasi bilan bog‘liqligini ko‘rsatadi.

Protsessual sintaksema predikativ markaz sifatida kelganda, u gapning voqea yoki jarayon haqidagi asosiy mazmunini shakllantiradi. Masalan, “The boy laughed” gapida laughed jarayonni bildiradi. The boy esa jarayonning bajaruvchisi bilan bog‘langan. “The boy is laughing” gapida esa davomiylik ma’nosi grammatik shakl orqali yanada aniqroq ifodalangan bo‘lsa-da, ikkala gapda ham jarayonlilik sintaktik-semantik jihatdan muhim belgi bo‘lib qoladi.

Protsessual sintaksemani tahlil qilishda uning boshqa sintaktik-semantik belgilar bilan birikishi ham muhim. Sintaksemik materiallarda processual active, processual active identifying, processual active consecutive kabi murakkab birliklarning ajratilishi qayd etilgan. Bu holat protsessual belgining o‘zi ham qo‘shimcha sintaktik-semantik belgilar bilan birikishi mumkinligini ko‘rsatadi. Masalan, harakatni bajaruvchi aniq shaxs ko‘rsatilgan gaplarda protsessual va agentiv belgilar birgalikda namoyon bo‘ladi. Harakatning natijasi ta’kidlangan konstruksiyalarda esa protsessual va resultativ xususiyatlar o‘zaro bog‘lanishi mumkin. Shu sababli protsessual sintaksemani faqat “harakatni bildiruvchi birlik” deb qisqa ta’riflashdan ko‘ra, uning qaysi sintaktik pozitsiyada kelishi va qanday qo‘shimcha belgilar bilan kombinatsiyalanishini ko‘rsatish ilmiy jihatdan aniqroqdir.

O‘rganilgan nazariy va amaliy materiallar asosida protsessual sintaksemaning quyidagi funksional xususiyatlarini ajratish mumkin. Birinchidan, u dinamik jarayonni ifodalovchi kategorial sintaktik-semantik birlikdir. Ikkinchidan, protsessual sintaksema predikativ munosabatni shakllantirishda markaziy komponent bo‘lishi mumkin. Uchinchidan, uning funksional maqomi faqat morfologik shakl bilan belgilanmaydi, balki gapdagi pozitsiya va distributiv xususiyatlar orqali aniqlanadi. To‘rtinchidan, protsessual sintaksema agentiv, obyektiv, resultativ va boshqa sintaksemalar bilan kombinatsiyalanishi mumkin.Tahlil natijasida protsessual sintaksemaning asosiy funksional xususiyatlari sifatida dinamik jarayonni ifodalash, predikativ munosabatni shakllantirishda ishtirok etish, agentiv va obyektiv birliklar bilan kombinatsiyalanish, turli morfologik vositalar orqali namoyon bo‘lish va

kontekstga ko‘ra qo‘shimcha sintaktik-semantik belgilar bilan birikish xususiyatlari aniqlandi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. Ванчикова Е.А. Роль синтаксемы в оформлении предикативных отношений // Филологические науки. Вопросы теории и практики. – 2016. – № 11 (65), ч. 3. – С. 84–86.
2. Дорошенков В.А. Амахина С.А., Синицына Ю.Н. Труды А.М. Мухина: два закона функционирования языка // Вестник Российского университета дружбы народов. Серия: Теория языка. Семиотика. Семантика. – 2025. – Т. 16, № 1. – С. 175–189. – DOI: 10.22363/2313-2299-2025-16-1-175-189.
3. Мухин А.М. Синтаксема как функциональная синтаксическая единица // Филологические науки. – 1961. – № 3. – С. 53–65.
4. Сухорольська С.М., Федоренко О.І. Методи лінгвістичних досліджень: навч. посіб. для студентів, аспірантів і науковців. – Львів: ВЦ ЛНУ ім. Івана Франка, 2005. – 378 с.
5. Ashurov Sh.S. Ingliz va o‘zbek tillarida kesim tipologiyasi. Filol.fan. nom. diss. – Samarqand, 2007. – 154 b.